

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

NamDPI o‘quv ishlari

bo‘yicha prorektor

_____ A.Abdunazarov

“ ____ ” _____ 2026-yil

**60111300- Musiqa ta’lim ta’lim yo‘nalishi (kunduzgi)
bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat
Attestatsiya sinovi**

DASTURI

2025-2026 o‘quv yili

Ushbu dasturda 60111300- Musiqa ta'lim ta'lim yo'nalishi uchun "Musiqa nazariyasi", "Cholg'u ijrochiligi" "Musiqa o'qitish metodikasi", "Musiqa tarixi", "Ananaviy xonandalik" maxsus fanlar bo'yicha Davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi, baholash mezonlari, savollari va o'quv adabiyotlari hamda elektron ta'lim resurslari ro'yxati keltirilgan.

Tuzuvchilar:

A.N.Asraqulova	NamDPI "ART pedagogika" kafedrası katta o'qituvchisi, PhD.
E.Tajiboyev	NamDPI "ART pedagogika" kafedrası dotsenti PhD
J.Gaziyev	NamDPI "ART pedagogika" kafedrası dotsenti
B.Shokirxonov	"ART pedagogika" kafedrası katta o'qituvchisi
B.Axmedov	"ART pedagogika" kafedrası katta o'qituvchisi
Sh. Abduraimov	"ART pedagogika" kafedrası o'qituvchisi
Sh. Qozaqova	Chortoq tuman 14 sonli bolalar musiqa va san'at maktabi direktori
N. Ro'zimetova	Namangan shahar 31-umumiy ta'lim maktabi direktori

Taqrizchilar:

D.Nomozova

FarDU Musiqiy ta'lim va madaniyat kafedrası dotsenti, (PhD)

Sh. Gaffarova

Namangan shahar 11-sonli BMSM direktori

60111300- Musiqa ta'lim ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi ART pedagogika kafedrasining 2025-yil «___» _____dagi № _____-sonli majlisida muhokama qilingan hamda tasdiqqa tavsiya etilgan.

60111300- Musiqa ta'lim ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi Namangan davlat pedagogika instituti Kengashining 2025-yil «___» _____dagi № _____-sonli majlisida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

I. UMUMIY QOIDALAR

1. **60111300- Musiqa ta'lim** ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi dasturi (keyingi o'rinlarda – **Dastur**) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 13-dekabrda 836-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim tashkilotlari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom, 2023 yil 7-avgustda 344-sonli buyruq bilan tasdiqlangan **60111300- Musiqa ta'lim** bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari" (keyingi o'rinlarda – **Malaka talablar**) hamda **60111300- Musiqa ta'lim** ta'lim yo'nalishi o'quv rejasining (keyingi o'rinlarda – **O'quv reja**) majburiy fanlarining o'quv dasturlari asosida tuzildi.

2. Fanlararo yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi (keyingi o'rinlarda – **Attestatsiya sinovi**) O'zbekiston Respublikasining oliy ta'limga oid qonun hujjatlarida belgilangan tartibga ko'ra, bitiruvchilarning Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlaridan biri hisoblanib, unda ta'lim yo'nalishi xususiyati, iqtidori va xohishiga ko'ra bitiruv malakaviy ishi yozish istagini bildirmagan, o'quv rejasidagi ta'lim dasturlarini to'liq o'zlashtirgan bitiruvchi kurs talabalari ishtirok etishlari shart.

3. Attestatsiya sinovini topshirishga o'quv reja va fan dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalarga ruxsat beriladi.

4. Attestatsiya sinovi O'quv rejasidagi majburiy fanlarning barchasini qamrab oladi hamda sinov topshiriqlari ushbu fanlar o'quv dasturlari asosida tuziladi.

5. Attestatsiya sinovi fanlar mazmuniga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining Malaka talablarida bitiruvchiga qo'yiladigan umumiy talablarga javob bera olish darajasini aniqlashga yo'naltiriladi.

II. ATTESTATSIYA SINOVI SHAKLI VA MUDDATI

6. 2025-2026 o'quv yilida **60111300- Musiqa ta'lim** ta'lim yo'nalishi bitiruvchilarining Attestatsiya sinovi – axborot texnologiyalarini tatbiq etgan holda test shaklida o'tkaziladi.

7. Dastur institut Kengashi tomonidan tasdiqlangan sanadan boshlab, o'quv yili yakuniga qadar Attestatsiya sinovi shaklini o'zgartirish mumkin emas.

8. Attestatsiya sinovi institut o'quv jarayoni grafigiga asosan, o'quv ishlari prorektori tomonidan tasdiqlangan muddatlarda o'tkaziladi va kamida olti oy oldin talabalarga yetkaziladi.

III. ATTESTATSIYA SINOVI SAVOLNOMASI

9. Attestatsiya sinovi savolnomasi ta'lim yo'nalishi Malaka talablarining

- bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga;
- kasbiy faoliyatga;
- majburiy fanlariga qo'yilgan talablarni qamrab oladi.

10. Attestatsiya sinovi savolnomasi ta'lim yo'nalishi O'quv rejasida keltirilgan quyidagi maxsus fanlar dasturlari asosida shakllantirildi:

Ushbu dastur “Musiqqa nazariyasi”, “ Cholg‘u ijrochiligi” “Musiqqa o‘qitish metodikasi”, “Musiqqa tarixi”, “Ananaviy xonandalik” fanlarini o‘qitishga mo‘ljallangan.

Ushbu fanlar majmui:

Musiqqa nazariyasi fanidan nazorat savollari

1. O‘lchov nima?
2. Qanday o‘lchovlarga murakkab o‘lchovlar deyiladi?
3. Murakkab o‘lchovlar oddiy o‘lchovlardan qanday farq qiladi?
4. Qanday o‘lchovlarga aralash o‘lchovlar deyiladi?
5. Sinkopa nima?
6. Musiqada interval deb nimaga aytiladi?
7. Melodik va garmonik intervallarning farqi nimada?
8. Intervallar miqdori qanday aniqlanadi?
9. Intervallarning son miqdori nima bilan o‘lchanadi?
10. Intervallarning son miqdorini belgilash uchun qaysi so‘zlar ishlatiladi?
11. Intervallarning nomlari qayerdan olingan?
12. Oddiy intervallar deb qaysi intervallarga aytiladi?
13. Intervallar qisqacha qanday belgilanadi?
14. Intervallarning tonlar (sifat) miqdori nima?
15. Uchtonlik nima?
16. Qaysi intervallar orttirilgan va kamaytirilgan deyiladi?
17. Qaysi intervallarga tarkibli intervallar deyiladi?
18. Tarkibli intervallarning nomlarini aniqlash uchun qaysi so‘zlar ishlatiladi?
19. Tarkibli intervallarning tonlar miqdori qanday aniqlanadi?
20. Intervallarning aylanishi nima?
21. Interval va uning aylanmasida pog‘onalari sonining umumiy yig‘indisi qanchaga teng bo‘ladi?
22. O‘zaro aylangan intervallarning tonlar yig‘indisi nimaga teng?
23. Qaysi intervallar aylanganda bir xil tonlar miqdori saqlanadi?
24. Tarkibli intervallarning aylanishi qanday amalga oshiriladi?
25. Barcha tarkibli intervallar qaysi intervallarga aylanadilar?
26. Qaysi intervallar konsananslar hisoblanadi?
27. Qaysi intervallar dissonanslar hisoblanadi?
28. Qanday intervallarga engarmonik teng intervallar deyiladi?
29. Lad nima?
30. Ladning tonikasi nima?
31. Eng ko‘p qo‘llaniladigan ikkita ladning nomlari nima?
32. Qanday ladga tabiiy major ladi deyiladi?
33. Major ladning qaysi pog‘onalari turg‘un, qaysilari noturg‘un hisoblanadi?
34. Major ladning turg‘un pog‘onalari qanday akkordni hosil qiladi?
35. Tabiiy major ladning noturg‘un pog‘onalari qanday akkordni hosil qiladi?
36. Major ladning asosiy ajralib turuvchi belgisi nima?
37. Tonallik nima?
38. Major tonalliklarida oxirgi diyez belgisi qaysi pog‘onaga to‘g‘ri keladi?
39. Major tonalliklarida oxirgi bemol belgisi qaysi pog‘onaga to‘g‘ri keladi?
40. Major tonalliklarining kvarta - kvinta davrasi nima?

41. Eshitilishi bo'yicha major tonalliklarining soni qancha?
42. Major ladining qanday turlari bor?
43. Garmonik major nima?
44. Garmonik majorning VI va VII pog'onalari orasida qanday interval hosil bo'ladi?
45. Garmonik majorning ettinchi pog'onasida qanday akkord hosil bo'ladi?
46. Melodik major nima?
47. Qanday ladga tabiiy minor ladi deyiladi?
48. Tabiiy minor gammasi qanday tartibda tuziladi?
49. Minor ladining turg'un pog'onalari qanday akkordni hosil qiladi?
50. Diyezli va bemolli minor tonalliklari qanday tartib bo'yicha joylashadilar?
51. Minor tonalliklarida oxirgi diyez belgisi qaysi pog'onaga to'g'ri keladi?
52. Minor tonalliklarida oxirgi bemol belgisi qaysi pog'onaga to'g'ri keladi?
53. Major va minorning parallel tonalliklari deb nimaga aytiladi?
54. Minor ladining qanday turlari bor?
55. Garmonik minor nima?
56. Garmonik minorning noturg'un tovushlari qanday akkordni hosil qiladi?
57. Melodik minor nima?
58. Nomdosh major va minor nima?
59. Kuyning ladi va tonalligi qanday qilib aniqlanadi?
60. VII pog'onasi pasaytirilgan major qaysi ladga kiradi
61. IV pog'onasi kutarilgan major qaysi ladga kiradi
62. VI pog'onasi ko'tarilgan minor qaysi ladga kiradi
63. II pog'onasi pasaytirilgan minor qaysi ladga kiradi
64. Davriya necha taktdan iborat bo'ladi?
65. Dominant kvintseptakkord D_{65} , ladning nechanchi bosqichida tuziladi, interval tarkibini ko'rsating.
66. $D_{4/3}$ – Dominant tertskvartakkord, interval tarkibini ko'rsating.
67. D_2 – Dominantseptakkord interval tarkibini ko'rsating.
68. Kichik yetakkchi septakkord VII_7 qaysi uchtovushliklardan tuziladi
69. Kamaytirilgan yetakchi septakkord VII_7 qaysi uchtovushliklardan tashkil topadi
70. Etakchi septakkordlar VII_7 nechta aynlanmaga ega
71. Re bemol mi qaysi interval
72. Lya bemol si qaysi tonallikda xarakterlanadi?
73. Sol diyez fa qaysi tonallikda xarakterli interval?
74. Mi bemol fa diyez qaysi tonallikda xarakterli interval?
75. Fa diyez mi bemol qaysi interval?
76. Mi lya bemol qaysi tonallikda xarakterli?
77. Tersiya bo'yicha tuzilgan uch yoki undan ortiq tovushlarninr bir vaqtda eshitilishi?
78. Bemol nima ?
79. D_7 akkordi qaysi funktsiyaga echiladi?
80. D_2 akkordi qaysi funktsiyaga echiladi?
81. D_7 nechta aylanmasi bor?
82. D_7 tuzilishi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
83. Dominantsekundakkord qaysi pog'onada tuziladi?
84. Garmonik majorda nechanchi pog'ona pasaytiriladi ?
85. Garmonik minorda nechanchi pog'ona ko'tariladi?
86. Kadensiyaning ma'nosi nima?
87. Modulyatsiya qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
88. Melodik minorda nechanchi pog'onalar ko'tariladi?
89. Notalarni cho'zish uchun qanday belgilar qo'yiladi?
90. Oddiy metr o'lchovlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
91. Og'ishma qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

92. Parallel tonliklar nima?
93. Parallel minor tonalligini topish uchun necha ton pastga tushish kerak ?
94. SII7 qanday tuziladi?
95. Subdominant nechanchi pog'onada joylashgan?
96. Tovushlar harfiy sistemasining ketma ketligini to'g'ri javobi?
97. Uchtovushlikni nechta aylanmasi bor?
98. Katta septima intervali necha ton?
99. Dominantseptakkord qaysi uchtovushlikka echiladi?
100. Yetakchi septakkord nechanchi pog'onada tuziladi?

Cholg'u ijrochiligi fanidan nazorat savollari

1. Toshkent davlat konservatoriyasi qachon ochildi?
2. Prima va qashqar rubobi sinflari nechanchi yili ochildi?
3. O'zbek xalq cholg'ulari guruhi tarkibi nechta?
4. Nay, qo'shnay, surnay cholg'ulari qaysi guruhga kiradi?
5. Cholg'ularning transpozitsiyalanishi nima degani?
6. Qashqar rubobini sozlanishi qaysi javobda to'g'ri berilgan?
7. hang cholg'usi qanday sozlanadi?
8. Qashqar rubobi yozilganidan bir oktava yuqori eshitiladimi yoki past?
9. *mf* ushbu belgi qanday vazifani bajaradi?
10. Rekonstruktsiya so'zining ma'nosi qanday?
11. Cholg'ularda ijro etishda barmoqlar holati nima deyiladi?
12. Bir tovushdan ikkinchisiga sirg'alib o'tishiga nima deyiladi?
13. "Stakatto" - nimani anglatadi?
14. To'rtta ijrochidan iborat ansambl nima deb ataladi?
15. Cholg'uning eng pastki tovushidan eng balandigacha bo'lgan tovushlar oralig'i qanday nomlanadi?
16. "Akkolada" qanday belgi?
17. Og'ir templarni aniqlang.
18. Bir ton oralig'idagi intervalning nomi?
19. Lya majorda nechta belgi bor ular qaysilar?
20. Sur'at asarning nimasini bildiradi?
21. Doni Zokirov nomidagi O'zbekiston Teleradiokompaniyasi qoshidagi xalq cholg'ulari orkestri nechanchi yilda tashkil topgan?
22. O'zbek xalq cholg'ulari kolleksiyasi ilk bor kim tomonidan yig'ilgan?
23. Cholg'ular nima sababdan takomillashtirilgan?
24. Sonata shakli qanday qismlardan iborat?
25. Nota ustiga qo'yiladigan "fermato" belgisi nimani bildiradi?
26. Applikatura nima?
27. Kimning boshchiligida o'zbek xalq cholg'ularini takomillashtirish ishlarini olib borilgan?
28. Chang qaysi cholg'ular guruhiga kiradi?
29. Rubato nima?
30. Recitativo so'zining ma'nosi qanday?
31. 4/4 qanday o'lchov?
32. Sol minorda nechta belgi mavjud?
33. Fa-# majorda nechta belgi mavjud?
34. Mustaqil O'zbekiston madhiyasining she'r muallifi kim?
35. O'zbekistonda tashkil etilgan birinchi oliy musiqa o'quv yurti qaysi?
36. Kadensiya nima?
37. G'ijjak qanday cholg'u?
38. Xarrak qanday vazifani bajaradi?

39. Koda qanday qism?
40. Auftakt nima?
41. Mi majorda nechta belgi bor?
42. Lya majoring parallel tonaligini toping?
43. Marsh qanday o'lchovlarda yoziladi?
44. Prima rubob cholg'usi qanday sozlanadi?
45. Nechta oktava bor?
46. Turli balandlikdagi uch va undan ortiq tovushlarning bir vaqtda yangrashi nima deyiladi?
47. Cholg'u ijrochiligi tushunchasi nima?
48. Cholg'u ijrochiligida ritmning ahamiyati qanday?
49. Dutor cholg'usining tuzilishi qanday?
50. O'zbek xalq cholg'ularining asosiy guruhlari qaysilar?
51. Cholg'u ansambli qanday turlarga bo'linadi?
52. Rubob ijrochiligida qanday texnik usullar mavjud?
53. Doira chalishda asosiy zarb usullari qanday?
54. Achchelerando qanday dinamik belgi?
55. sfushbu belgi qanday vazifani bajaradi?
56. Largoda ijro qanday bo'lishi kerak?
57. Adajio qanday sur'at?
58. Xromatik gamma qanday ijro etiladi?
59. Forshlag qaysi tildan olingan?
60. Alteratsiya belgilari nechta?
61. Musiqada nechta asosiy tovush bor?
62. Sinkopa nima?
63. Musiqiy tovushlarning qattiq-sekin ijro qilinishi nima deyiladi?
64. Laddagi asosiy tovushlarning birin-ketin izchilligi nima deyiladi?
65. O'zbek xalqining boy musiqa madaniyati cholg'u san'ati, nechanchi asrdan taraqqiy etishni boshlagan?
66. Trel nima?
67. Birinchi o'zbek xalq cholg'ulari orkestri kimning nomi bilan atalgan?
68. Changning tovushqatori qanday ataladi?
69. Nog'ora cholg'usi qaysi cholg'ular guruhiga kiradi?
70. Nechanchi yilda o'zbek davlat filarmoniyasi tashkil etildi?
71. Cholg'ularni takomillashtirish ishlariga kim boshchilik qildi?
72. "So'g'diyona" o'zbek xalq cholg'ulari kamer orkestrining asoschisi kim?
73. Dutor ochiq simlari joylashuvi?
74. Nechanchi yilda O'zbek davlat filarmoniyasi qoshida O'zbek xalq cholg'ulari orkestri tashkil topdi?
75. Moskva dekadasida o'zbek xalq cholg'u asboblari ansambl ishtirok etdi. Shu ansamblga kim rahbarlik qilgan va rubobchi sozandalardan kimlar qatnashgan?
76. Al – Farobiy musiqa haqidagi risolasida shunday deb yozgan: Kishi ovozigga yaqin tovush chiqaradigan cholg'u asboblari qaysi birlari?
77. Shashmaqom kim tomonidan notalashtirilgan?
78. Katta ashula qaysi viloyat musiqa janriga kiradi?
79. Do majorda nechta belgi bor?
80. Maqom so'zining manosi?
81. D. Zokirov nomidagi o'zbek xalq cholg'ulari orkestri nechanchi yilda tashkil topgan?
82. Musiqa estetikasiga ta'rif bering.
83. Fortepiano qaerda, kim tomonidan yasalgan?
84. "Bahor vals" asarini yozgan bastakor nomini aniqlang?

85. Farobiyning musiqaga oid kitobi qaysi javobda to'g'ri berilgan?
86. O'zbekiston temradiokompaniyasi qoshida dutorchilar ansambliga qaysi taniqli sozanda, bastakor tuzgan?
87. Kamer orkestri boshqa turdagi orkestrlardan nima bilan farq qiladi?
88. Orkestrda qanday sozandalar ishlashi mumkin?
89. Sozandalar ansambl ijrochiligida asosan nimaga e'tibor berishlari kerak?
90. Ansambl sozandalari ijroni boshlash va tugallashdan qaysi sozandaga bo'ysunadi?
91. Duet ijrochiligi qanday ansambl?
92. Asosiy tovushning keyingi tovushi bilan tez almashilinish turishi natijasida paydo bo'lgan bidiratma tovushni nima deymiz?
93. "Ansambl" - so'zi qaysi tildan olingan?
94. Uchta ijrochidan iborat ansambl nima deb ataladi?
95. Re majorda nechta belgi bor ular qaysilar?
96. Lya minorning parallelini toping.
97. Orkestrda kim rahbarlik qiladi?
98. Drijior so'zi qaysi tildan olingan?
99. Allegro qanday sur'at?
100. 5/8 o'lchovi qanday o'lchovlarga kiradi?

Musiqqa o'qitish metodikasi fanidan savollar

1. Adajio?
2. Qaysi metod vositasida nota yozuvlari, dirijyorlik harakatlari, raqs musiqani jonli va ochiq ijro etilishi, ritmik sur'ati ko'rsatiladi?
3. Boshlangich sinflarda qaysi metod ko'proq qo'llaniladi?
4. Bir o'quv yilida nechta musiqiy asar tinglanadi?
5. Xorazm musiqqa an'anasini tashkil qiluvchi ansambl cholg'ulariga qaysi cholg'ular kiradi?
6. Xorazm maqomlarining to'liq turkumi kim tomonidan yozib olingan?
7. Musiqqa madaniyati o'qituvchisining mahorati nimada?
8. Musiqqa madaniyati darsida suhbat qanday metod sifatida qo'llaniladi?
9. Qadimgi Gretsiyada qanday fazilatlarini musiqqa yordamida tarbiyalash mumkin deb hisoblangan?
10. Musiqqa qanday omillarni shakllantiradi?
11. Pedagogik qobiliyat deganda nimani tushunasiz?
12. Perspektiv qobiliyatlar deganda nimani tushunasiz?
13. Xissiy barqarorlik deganda nimani tushunasiz?
14. Kreativlik deganda nimani tushunasiz?
15. Reproktiv deganda nimani tushunasiz?
16. Innovatsiya deganda nimani tushunasiz?
17. Musiqqa fanining murakkabligi nimada?
18. Musiqqa tinglash etaplari nechta?
19. Nima uchun yuksak badiiy musiqiy asar bilan o'quvchilarni tanishtirish lozim?
20. Vokal-xor malakalarini qanday turlari mavjud?
21. Mahorat deganda nimani tushunasiz?
22. Klaster yoki tarmoqlar» metodi deganda nimani tushunasiz?
23. «Interaktiv metod» deganda nimani tushunasiz?

24. «Garmon», «Bulamon», «Tor», «Dumbira» kabi cholgu sozlari qaysi mahalliy uslubga mansub?
25. O'qitish metodi qanday sifatlarga ega bo'lgan ta'lim?
26. Shashmaqomda xar bir maqomning ketma-ketligini aniqlang?
27. An'anaviy metodlar qaysi tizimlarni tashkil etadi?
28. Vokal – xor malakalari qanday ahamiyatga ega?
29. Musiqiy o'quvi bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishlash metodi, Musiqa madaniyati darsida qanday o'rganiladi?
30. Musiqa o'qitish metodlarining qanday turlari mavjud?
31. Musiqa darsini faoliyatlari deganda nima nazarda tutiladi?
32. Musiqa madaniy hayotimizda qanday ahamiyatga ega?
33. “Qo`biz”, “Gajir nay”, “Chanqobuz”, “Dumbira” qaysi mahalliy uslub sozlariga mansub?
34. O'zbek xalq Musiqasi necha turga brlinadi?
35. «Tarmoqlar» metodi deganda nimani tushunasiz?
36. Birinchi bolalar operasining nomini toping?
37. Birinchi bolalar operasining muallifi kim?
38. Opera janri deb nimaga aytiladi?
39. Sahnaviy asar deb nimaga aytiladi?
40. Bu asardan qaysi biri o'zbek kompozitorlarining qalamiga mansub?
41. Balet san'ati deganda nimani tushunasiz ?
42. Har bir maqom qanday bo'limlardan iborat?
43. Musiqa darsida qo'llanadigan bolalar cholgu asboblarining turlari?
44. Yallachilik san'ati qaysi maxalliy uslubda keng tarqalgan?
45. «Mavrigi» janrida erkaklar qo`shiqalar kuylaydilar. Bu janr qaysi mahalliy uslubda keng tarialgan?
46. Dostonchilik va baxshchilik san'ati qaysi xududda rivojlangan?
47. «Shashmaqom» ustida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan olimning ismi sharifini ayting?
48. Musiqiy ta'lm jarayonida yetakchi o`yin shakli- bu ?
49. O'yin metodi qaysi sinflarda ko'proq qo'llaniladi?
50. Musiqaga mos harakatlar qaysi sinflarda ko'prok qo'llaniladi?
51. Musiqa qanday idrok etiladi?
52. Kuylashda o'tirish, turish, qanday holatga muvofiq keladi?
53. “Xususiy metod” nimani anglatadi?
54. Vokal-xor malakalari, nazariy tushunchalar, o'rganish, tahlil qilish qaysi metodga kiradi?
55. Sozlanish deganda nimani tushunasiz?
56. Unison kuylash ...?
57. Musiqa o'qituvchisi bir soatlik darsda qanday kasbiy yo'nalishlar bo'yicha malakaviy tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim ?
58. Musiqiy tarbiyaning bosh maqsadi ...
59. Musiqiy ta'lim dasturi qaysi davlat xujjat asosida ishlab chiqildi ?
60. Yangi dasturni o'ziga xos xususiyati nimalardan iborat?
61. Musiqa sa'natning qanday turi hisoblanadi?
62. Musiqa etikasi bu...
63. Musiqa o'qitishdagi eng muhim farqli xususiyatlardan biri...
64. Musiqa qanday vosita o'rqali idrok etiladi?
65. Darsning aralash tipi nimani ifodalaydi?
66. Boshlangich sinflarda dars faoliyati nechta bo'ladi?
67. O'rta sinflarda musiqaning asosiy faoliyati necha turdan iborat?
68. Boshlangich sinf o'quvchilarining diqqat e'tibori qanday bo'ladi?
69. Boshlangich sinflarda musiqiy faoliyat turlarini qanday o'tish kerak?
70. “Musiqa nazariyasi” qanqay fan?
71. Vokal-xor mashguloti bu

72. Davlat ta'lim standarti o'zida.....
73. Musiqaga oid o'quvchilar tayyorgarlik darajasiga ko'yiladigan talablar kaysi davlat xujjatida bayon etilgan?
74. O'zbekiston madxiyasi bilan 1-sinfda bolalar qaysi faoliyat turi o'rqali tanishadi?
75. Musiqa idroki necha xolatda amalga oshadi?
76. Musiqa savodi barcha faoliyatlarni....
77. Raqs va musiqali harakatlar....
78. Musiqa ijodkorligi o'quvchilarda...
79. 1-sinf III-chorak mavzusi:
80. Xor va orkestr haqida, opera haqida nechanchi sinfda tushuncha beriladi?
81. O'yin metodi qaysi sinflarda ko'proq qo'llaniladi?
82. Taqqoslash metodi musiqa darslarida qo'llaniladimi?
83. DifferentSIONAL guruxlarga bo'lish qanday metod tarkibiga kiradi?
84. Musiqa o'quv bo'sh bo'lgan bolalar bilan ishlash qanday shaklda amalga oshiriladi?
85. DifferentSONAL bo'linish necha guruxdan iborat va qaysilar?
86. DifferentSIONAL guruxlar qanday joylashtiriladi?
87. Amaliy metod qanday ma'noni anglatadi?
88. Xor bo'lib kuylashda qanday malakalar xal etuvchi axamiyat kasb etadi?
89. Kompozitorlik ijodi qanday tavsiflanadi?
90. Vakal-xor malakalarini ifodalovchi qismlar to'g'ri yozilgan javobni aniqlang?
91. Q'shiq kuylash xolati nimani nazarda tutadi?
92. Kuylashdagi nafasning o'ziga xosligi nimada ko'riladi?
93. Fiziologik nafasni qanday tushunasiz?
94. Ashulachilik nafasining turlari to'g'ri ko'rsatilgan javob?
95. Janr nimani bildiradi?
96. 4- isnfda yil mavzusi?
97. Bastakorlik ijodi qanday tavsiflanadi?
98. Vol'ta nima?
99. A' kapella asarlari ijrosiga o'tish qaysi sinfdan boshlanadi?
100. Nota yozuviga qarab kuylash va sol'fedjalash nechanchi sinfdan boshlanadi?

Musiqa tarixi fanidan savollar.

1. I.S.Bax qaysi millat kompozitori?
2. I.S.Bax qaysi shaxarda tug'ilgan?
3. I.S.Bax organ uchun nechtdan ortiq asar yozgan?
4. 1708-yilda I.S.Bax qaysi shaxarda ijod qilgan?
5. Organ puflama klavishlik cholg'u qachon paydo bo'lgan?
6. I.S.Bax nechanchi yilda tug'ilgan?
7. I.S.Baxni musiqasidagi asosiy janrlar nimalardan iborat?
8. I.S.Bax qaysi diniy musiqiy janrni yaratishda asosiy ahamiyatga ega bo'ldi?
9. I.S.Bax asarlari boshqa kompozitorlardan ajratib turadigan jihati qanday?
10. I.S.Bax "hudoning ulug'ligi" asari qanday janrda yozilgan?
11. I.S.Bax qanday instrumentlar uchun musiqalar yaratgan?
12. X.V.Glyuk qaysi musiqiy janrni isloh qilishga xissa qo'shgan?
13. X.V.Glyuk qachon tug'ilgan?
14. X.V.Glyukning birinchi operasi qaysi?

15. Demetri operasi muallifi kim?
16. “Almira, Neron, Rodrigo” operasi kimga tegishli?
17. 1745-yil “Mingotti” opera guruhigakimboshchilikqildi?
18. X.V.Glyukning xajviy operasi qaysi?
19. “Tuzalغان kayfiy” operasi muallifi kim?
20. X.V.Glyukning Venada qo'yilgan oxirgi operasi qaysi?
21. X.V.Glyukning musiqiy islohotlari qanday maqsadga qaratilgan?
22. X.V.Glyukni musiqiy faoliyatiga qaysi mashxur shoir ta'sir ko'rsatgan?
23. X.V.Glyukni musiqiy islohotlari bilan bog'liq bo'lgan asosiy opera janri qanday?
24. X.V.Glyuk qaysi hukumdorning homiyligi ostida ijod qilgan?
25. X.V.Glyuk ijodining asosiy g'oyalari qaysi san'at uslubiga mos keladi?
26. X.V.Glyuk qaysi shaxarda vafot etgan?
27. X.V.Glyukni islohotlari kim tomonidan tanqidga uchragan?
28. Robert Shumanning tug'ilgan yili va tug'ilgan shaxri?
29. Robert Shumanning asosiy ijodiy janrlari?
30. Robert Shumanning “Davrlar”(Carnaval) asari qanday turdagi kompozitsiyalar?
31. Robert Shumanning musiqa stilining o'ziga xos xususiyatlari nimada edi?
32. Robert Shumanning muammolari v ao'limga olibkelgan oilaviy va psixo-emotsional muammolari qayerdan tug'ildi?
33. Robert Shumanning “Flyors” kompozitsiyasi qaysi janrda yaratilgan?
34. Robert Shumanning ijodiga qaysi buyuk kompozitorlar ta'sir ko'rsatgan?
35. Robert Shumanni ta'lim berishga qabul qilgan asosiy ustoz kim edi?
36. Georg fridrix Gendel qaysi davlatda tug'ilgan?
37. G.F.Gendel tug'ilgan shaxri qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
38. G.F.Gendel qanday musiqiy janrlarda asarlar yaratgan?
39. G.F.Gendel eng mashxur asari?
40. G.F.Gendel “Messiya” asari qachon ijro etilgan?
41. Glyukning Venada qo'yilgan oxirgi operasi?
42. G.F.Gendel necha yoshidan organ chalib kichik piessalar yozgan?
43. G.F.Gendel qachon “Almira, Neron, Rodrigo ”yozgan?
44. G.F.Gendel nechanchi yilda saroy Kopelmeysteri bo'ladi?
45. “Orfey operasi” kimga tegishli?
46. G.F.Gendel nechta opera yozgan?
47. G.F.Gendel qachon “Suvdagi musiqa”cholg'u asarini yozgan?
48. “Samsong” oratoriyasi kimga tegishli?
49. I.Gaydn qachon tug'ilgan?
50. “Yangi cho'loq shayton” musiqiy komediyasi kimga tegishli?
51. I.Gaydn Eyzenshtadtda kim bilan uchrashdi?
52. I.Gaydn qachon vafot etdi?
53. “Tsikl” so'zining ma'nosi nima?
54. Simfoniya qaysi millat vakillari yaratgan?
55. Qachon simfoniya mustaqil konsert asariga aylangdi?
56. 36 yil umr ko'rgan mashxur kompozitor kim?
57. Motsart qancha simfoniya yaratdi?
58. V.A.Motsart nechta opera yaratgan?

59. Bu operalar qaysi kompozitorga tegishli “Figaroning uylanishi”, “Don-Juan”, “Sehrli nay”?
60. Kim “Motsart va Saleri” nomli fojiali drama yozdi?
61. A.Motsart qachon tug’ildi?
62. Necha yoshida V.A.Motsartning asarlari chop etildi?
63. “Lol qiz” operasi kimga tegishli?
64. V.A.Motsart 1769-1771-yillarda qayerga konsert qo’yishga boradi?
65. Kim Nemis shaharlaridan biri Bonnda 1770-yilda tug’ildi?
66. L.Betxoven necha yoshida birinchi konsertini qo’yadi?
67. Kristian Nefeda kimning birinchi ustozini?
68. L.Betxovenning azaliy orzularidan biri qayerga borish edi?
69. L.Betxoven Venaga borib kim bilan uchrashdi?
70. L.Betxoven Venada ilk bor kim sifatida tanildi?
71. L.Betxoven nechchi yoshida qulog’I eshitmay qolayotganini sezdi?
72. “Postoral” simfoniya va “Avrora” sonatalarini kim yozgan?
73. Nechanchi yilda L.Betxoven og’ir kasallikdan vafot etadi?
74. Necha yoshigacha L.Betxoven simfoniya yozgan?
75. L.Betxoven N9 simfoniyasini deyarli necha yil davomida yozgan?
76. R.Vagner qachon va qaysi shaxarda tug’ilgan?
77. “Fen” operasi kimga tegishli?
78. Gendelning familiyasi hamda otasining ismi to’g’ri yozilgan qatorni toping?
79. “Taqiqlangan muxabbat” operasi kimga tegishli?
80. “Uchuvchi Galland” operasi kimga tegishli?
81. R.Vagnerning qaysi operasi oxirgi operasi bo’lgan?
82. Y.Gaydn nechchi yoshida vafot etgan?
83. Y.Gaydn qayerda tug’ilgan?
84. Y.Gaydn nechinchil yilda tavallud topgan?
85. Shubertning tugallanmagan simfoniyasi nechchi qismdan iborat?
86. Frans Shubert qaysi janrda hamkasblaridan ajralib turgan?
87. Frans Shubert qaysi operasini yakunlay olmagan?
88. Frans Shubertning sonatalari va simfoniylari ko’plari qaysi davrda qadrlana boshlandi?
89. Frans Shubertning ilk simfoniyasi qaysi yilda yozilgan?
90. Frans Shubertning musiqasidagi eng ko’p uchraydigan mavzular nima edi?
91. Frans Shubertning qaysi sari “Erlkonig” nomi bilan mashxur?
92. Frans Shubert nechchi yoshida vafot etdi?
93. Frans Shubert qaysi kasallikdan vafot etgan?
94. Fransiya qirolichasi Mari Antuanetta Glyukni “Orfey va Evriditsa” “Ifigeniya” operalari qancha miqdorda mukofotlagan?
95. F.Y.Gaydn qaysi davrning eng muhim musiqachilaridan bo’lgan?
96. V.A.Motsartning otasi unga yoshligidan qaysi cholg’u asboblari chalishni o’rgatgan?
97. Motsart oilada nechta farzand bo’lgan va nechtasi tirik qolgan?
98. F.List qanday oilada dunyoga kelgan?
99. F.List qanday daho musiqachilar bilan uchrashgan va bu uchrashuv mahoratini oshirishga majbur qilgan?
100. F. List nima uchu Parij Konservatoriyasiga qabul qilinmagan?

An'anaviy xonandalik fanidan savollar.

1. An'anaviy xonandalik nima?
2. An'anaviy xonandalik qaysi san'at turiga kiradi?
3. O'zbek an'anaviy xonandaligining asosiy yo'nalishlaridan biri bu?
4. O'zbek mumtoz musiqasining eng yirik janri qaysi?
5. Shashmaqom nechta maqomdan iborat?
6. Maqom so'zining ma'nosi nima?
7. Quyidagilardan qaysi biri milliy ashulachilik turi xisoblanadi?
8. An'anaviy xonandalikda ovozning asosan qaysi sifatlari muhim hisoblanadi?
9. Ashula bilan qo'shiqning farqi?
10. Shashmaqomda nechta bo'lim bor?
11. Shashmaqom ashula bo'limi qanday nomlanadi?
12. Shashmaqomning ashula bolimida nechta sho'ba bor?
13. Shashmaqomning birinchi va ikkinchi guruh sho'balarining farqi nimada?
14. 12 maqom nima deb nomlangan?
15. Shashmaqom so'zining ma'nosi?
16. Saraxbor so'zining ma'nosi nima?
17. Shashmaqomning ketma ketligi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni aniqlang.
18. Shashmaqomdagi beshinchi maqom qaysi?
19. Soqinomai savti kalon ashulasi qaysi guruh sho'basi?
20. Buzruk so'zining ma'nosi nima?
21. Shashmaqomdagi maqom yo'llarining eng qadimiysi qaysi?
22. Namanganlik ustoz san'atkorlar qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?
23. Jo'rsiz kuylanadigan ashula yo'li nima deb nomlanadi?
24. Shashmaqomda ashula bo'limi xar doim qanday qism bilan boshlanadi?
25. Maqom ijrochiligi qaysi hududlarda rivojlangan?
26. Alla qo'shig'ining eng mohir ijrochisi kim?
27. Folklor so'zining ma'nosi?
28. O'zbekiston nechta maxalliy uslublar mavjud?
29. Sharq taronalari festivali qayerda va xar nechchi yilda o'tkaziladi?
30. Maqom anjumani birinchi marta qayerda o'tkazilgan?
31. O'zbekistonda milliy xonandalik maktablari nechta?
32. Farg'ona-Toshkent maqom yo'llaridagi ashulalar to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping?
33. Maqom asarlari odatda qanday bo'ladi?
34. Xonanda ovozini rivojlantirish uchun nima qiladi?
35. Doira qaysi cholg'u turiga kiradi?
36. Rubob qaysi cholg'u turiga kiradi?
37. "Ey sarvi ravon" ashulasining musiqa muallifi kim?
38. Shashmaqomning ikkinchi nomi nima?
39. "Soqinomai savti kalon" ashulasi qaysi maqom tarkibida?
40. Namud so'zining ma'nosini nima?
41. Uzzol so'zining ma'nosi nima?

42. Shashmaqomni kim notaga olib 6 maqom shakliga keltirgan?
43. Qo'shiqlarni kim bastalaydi?
44. Dunasr so'zining ma'nosi nima?
45. Qo'sh chinor ashulasi xalq ashulasi deb yuritiladi lekin ayrim manbalarda bir bastakorning nomi bilan keladi usha bastakorning ismi?
46. Ovoz diapazoni nima?
47. Maqomlar qaysi davr san'ati?
48. Xonandalikda ashulachi nafasni qayerga oladi?
49. O'zbek mumtoz qo'shiqlarining asosiy mavzusi?
50. Ovoz mashqlari nima deb ataladi?
51. Maqom ijrochilari kimlar?
52. An'anaviy xonandaning ovozi qanday bo'lishi kerak?
53. Hofiz kim so'zining ma'nosi nima?
54. Xalq qo'shiqlari qanday yaratiladi?
55. Lapar kimlar tomonidan kuylanadi?
56. An'anaviy xonandalik qaysi madaniyatga tegishli?
57. An'anaviy qo'shiqlar nimaga xizmat qiladi?
58. Hofizlik san'ati qaysi yo'l bilan rivojlangan?
59. Saraxborlar nechinchi guruh sho'balaridan?
60. Uzzol so'zining ma'nosi nima?
61. Qashqarcha nechinchi guruh sho'basi?
62. O'zbekiston xalq artisti Abduxoshim Ismoilov qaysi cholg'u asbobini chaladi?
63. So'lim ashulasining muallifi kim?
64. Qaysi qatorda bolalar asarlari to'g'ri ko'rsatilgan?
65. Namanganlik ustoz san'atkorlar qaysi qatorda?
66. Rubob cholg'usi qaysi notalarga sozlanadi?
67. G'ijjak cholg'usi orkestrda qaysi cholg'ular guruhiga kiradi?
68. Tanbur so'zining ma'nosi nima?
69. Maqom so'zining ma'nosi nima?
70. Shashmaqomning cholg'u yo'li nima deb nomlanadi?
71. Shashmaqom asosan qaysi hududda rivojlangan?
72. Shashmaqom UNESCO tomonidan qachon nomoddiy meros sifatida e'tirof etilgan?
73. Shashmaqomning birinchi maqomi qaysi?
74. Shashmaqomning oxirgi maqomi qaysi?
75. Shashmaqom ijrochiligida kimlar asosiy rol o'ynaydi?
76. Shashmaqom maqomlaridan biri bo'lgan "Segoh" nechinchi maqom hisoblanadi?
77. Shashmaqomni yozib olish va notalashtirishda kimlar xizmat qilgan?
78. Shashmaqom qaysi davrda shakllangan?
79. Shashmaqom qaysi fan bilan chambarchas bog'liq?
80. Shashmaqom ijrochiligida qanday uslub muhim?
81. Shashmaqomning rivojiga katta hissa qo'shgan san'atkorlardan biri kim?
82. Shashmaqom asarlarida ko'pincha qaysi shoirlarning g'azallari foydalaniladi?
83. Shashmaqom qaysi san'at maktabi bilan mashhur?
84. Shashmaqom asarlarida ritm qanday bo'ladi?
85. Shashmaqom ijrochiligi qanday usulda o'rgatiladi?

86. Shashmaqomda asosan usullarda qaysi cholg‘u ishlatiladi?
87. Shashmaqom qanday meros hisoblanadi?
88. Katta ashula dastlab nima deb nomlangan?
89. Segoh qaysi maqomdan olingan?
90. O‘zbek folklori asosan qanday shaklda yaratiladi?
91. O‘zbek xalq dostonlarini ijro etuvchi san’atkor nima deb ataladi?
92. Quyidagilardan qaysi biri o‘zbek xalq dostoni hisoblanadi?
93. “Dugoh xusayn” qaysi maqom turiga kiradi?
94. Yallachilik san’ati kimlar tomonidan ijro etiladi?
95. O‘zbekiston xalq artisti Abduxoshim Ismoilov qayerda tavallud topgan?
96. “Mavrigi” qo‘shiq yo‘nalishi qaysi viloyatda kuylanadi?
97. “Zebo pari” nomi nimani anglatadi?
98. “Daromad” nima?
99. Farobiyning musiqa nazariyasi yoritilgan mashhur risolasi?
100. Maqom ijrochiligida qaysi cholg‘u yetakchi hisoblanadi?

IV. ATTESTATSIYA SINOVI NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI

11. Attestatsiya sinovi bo‘yicha talabalar bilimni baholash O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2018 yil 9 avgustdagi 19-2018-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risida”gi Nizom talablari asosida amalga oshiriladi.

12. Axborot texnologiyalarini qo‘llash orqali o‘tkaziladigan test sinovlarida har bir talabaga 100 (yuz) ta savoldan iborat test varianti taqdim etiladi.

Har bir test variantida mazkur Dasturga kiritilgan fanlarga doir savol (topshiriq)lar nisbati o‘zaro mutanosib taqsimotda bo‘lishi lozim.

Talaba bilimi Attestatsiya sinovida to‘g‘ri topilgan test savollari soniga nisbatan quyidagi taqsimotda baholanadi:

86 ta va undan ko‘p savollarga to‘g‘ri javob berilganda – 5 (“a’lo”);

71 tadan 85 tagacha savollarga to‘g‘ri javob berilganda – 4 (“yaxshi”);

55 tadan 70 tagacha savollarga to‘g‘ri javob berilganda – 3 (“qoniqarli”);

54 ta va undan kam savollarga to‘g‘ri javob berilganda – 2 (“qoniqarsiz”).

Test shaklidagi Attestatsiya sinoviga 3 (uch) soat vaqt beriladi.

Test shaklidagi Attestatsiya sinovi talabalar sig‘imiga qo‘yiladigan texnik talablarga mos, kompyuterlar bilan jihozlangan o‘quv xonalari (hudud)da o‘tkaziladi.

13. Talaba baholash natijalaridan norozi bo‘lgan taqdirda Attestatsiya sinovlari natijalari Komissiya tomonidan e‘lon qilingan vaqtdan boshlab 24 (yigirma to‘rt) soat davomida apellyatsiya berishi mumkin.

Talabaning apellyatsiya murojaati universitet rektori buyrug‘i asosida tuziladigan Apellyatsiya komissiyasi tomonidan 2 (ikki) kun ichida ko‘rib chiqiladi va uning natijasi bo‘yicha qaror qabul qilinadi.

V. ATTESTATSIIYA SINOVI BO‘YICHA TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI VA QO‘SHIMCHA USLUBIY KO‘RSATMALAR

1. O‘zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-sonli Farmoni. "OTTni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi".
3. Vazirlar Mahkamasining 824-sonli qarori. "OTMda o‘quv jarayonini kredit-modul tizimi bilan tashkil etish tartibi".
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-son Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15. 11. 2024 yildagi PQ-391-son Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqa madaniyati fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 05.05.2016 yildagi 144-son Bolalar musiqa va san'at maktablari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida
7. Panjiyev Q. "Musiqa o‘qitish metodikasi". Toshkent, 2022.
8. Sharipova G. "Musiqa o‘qitish metodikasi". Darslik, 2021.
9. Ismoilov B. "Musiqa pedagogikasi va psixologiyasi". Toshkent, 2023.
10. Panjiyev Q. "Musiqa o‘qitish metodikasi". – Toshkent, 2022. (Jahon tizimlari tahlili).
11. Hasanov A. "Musiqa va tarbiya". – Toshkent: O‘qituvchi. (Didaktik tamoyillar).
12. Ismoilov B. "Musiqa pedagogikasi: shakl va metodlar". – Toshkent, 2023.
13. Muslimov N.A. "Kasbiy pedagogika". – Toshkent, 2021.
14. Akbarov. I "Musiqa nazariyasi". – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti. (Nazariy fanlar tavsifi).
15. M. Yo‘ldoshev. "Oliy ta’limda raqamli transformatsiya: tendensiyalar va istiqbollar". Toshkent, 2023.
16. A. Hasanov. "Musiqa va tarbiya". Toshkent, O‘qituvchi.
17. B. Ismoilov. "Musiqiy idrok etish metodikasi". O‘quv qo‘llanma, 2022.
18. R. Sharipov. "Oliy ta’lim menejmenti: strategik rivojlantirish va sifat nazorati". Toshkent, 2021.
19. M. Yo‘ldoshev. "Zamonaviy menejment nazariyasi va OTT amaliyoti". Toshkent, 2022.
20. Mark Feezell. Music Theory Fundamentals. – High-Yield Music heory, vol.1. Copyright © 2011 All Rights Reserved.
21. Michael Pilhofer and Holly Day. "Music Theory for dummies". – Indiana USA 2007 Wiley Publishing Inc.

22. Абызова Е. Н. Гармония. Москва, 2008. (Электронный).
23. Ройтерштейн М.И. Основы музыкального анализа. Москва, «Владос», 2001. (Электронный).
24. Двухголосное солфеджио. Сост. Способин И. - М., «Музыка», 2009.
25. Иброхимов О., Юнусов Р. Солфеджио дарслиги. Тошкент, «Музыка», 2004.
26. Ладухин Н.М. Одноголосное Солфеджио. - М., «Музыка», 2005.
27. Островский А.Л., Соловев С.Н., Шокин В.П. Солфеджио. - М., «Музыка», 2013.

VI. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

15. Dasturda belgilangan qoidalar O‘zbekiston Respublikasi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining, shuningdek ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan qabul qilingan qoida va me’yorlarga zid kelsa, yuqori turuvchi organlarda belgilangan qoida va me’yorlar amal qiladi.

16. Dastur institut Kengashi tomonidan tasdiqlangandan so‘ng, yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan uch oy oldin talabalar e’tiboriga yetkaziladi hamda universitetning rasmiy saytiga joylashtiriladi.

17. Fakultet dekanlari tomonidan bitiruvchi kurs talabalariga mazkur Dastur asosida tayyorgarlik ko‘rish va maslahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

